

O‘ZBEK KOMPOZITORLIK IJODIYOTIDA O‘ZBEK OPERA SAN’ATI, UNING YOSHLAR MA’NAVIYATIDAGI O‘RNI

<https://doi.org/10.70728/orien.v07.i02.036>

Pardaeva Nilufar Suvonovna
nilufar-pardaeva@mail.ru
O‘zbekiston davlat konservatoriyasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek kompozitorlarining opera janrida yozilgan asarlari haqida ma’lumotlar berilib, ular aks ettirgan mavzular, tarixiy shaxslar, obrazlar xaqida fikr yuritilgan. Ushbu operalar ma’lumotlari ijrochilar tomonidan talqin etilishi, ijrochilik masalalari yosh opera ijrochilari ma’naviyatini va ijrosini yuksaltirishga hissa qo‘shadi.

Kalit so‘zlar: musiqa, opera, vokal, ijrochi, kompozitor, teatr, libretto

UZBEKISTAN OPERA ART IN UZBEKISTAN COMPOSING CREATIVITY, ITS PLACE IN YOUTH SPIRITUALITY

Pardaeva Nilufar Suvonovna
nilufar-pardaeva@mail.ru
State conservatory of Uzbekistan

Abstract: This article provides information about the works of Uzbek composers in the opera genre, and discusses the themes, historical figures, and images they reflect. The interpretation of these operas by performers and performance issues contribute to raising the spirituality and performance of young opera performers.

Keywords: music, opera, vocal, performer, composer, theater, libretto

Inson tarbiyasi, kamoloti, har qanday jamiyatning eng dolzarb muammolaridan biri bo‘lib kelgan. Shu o‘rinda jamiyatning shakllanishi, rivojlanishi, ravnaq topishi shu jamiyatdagi yoshlar tarbiyasiga bog‘liq.

Tarbiya bu shaxsni ijtimoiy iqtisodiy ishlab chiqarish munosabatlariga tayyorlash maqsadida uning ma’naviy va jismoniy rivojlanishiga muntazam ravishda ta’sir etib borishdan iborat bo‘lgan uzluksiz jarayon. Shunday ekan yoshlarga ta’lim tarbiya berish, ma’nan yetuk qilib tarbiyalash, ularni mustaqilligimizni mustaxkamlash yo‘lida safarbar etish muhimdir.

Operalar davr qaxramonlari, voqiylik, insonlar taqdirlarni aks ettiruvchi va tarixga muxirlovchi, ularga nisbattan munosabat, xalqlar orzusi, umumbashariy

an'analar, olimlar yondoshuvi, ilm-fan taraqqiyotiga nisbattan kompozitor tomonidan anglanadi va yaratiladi. Bu fikrlarni rejissyor talqin qilib obrazlarni jonlantirsa, musiqiy tildagi va tasirchanlik, uning yo'nalishini dirijyor tinglovchiga yetkazishga xarakter qiladi. Barchasini operadagi obrazni aktyor va vokal ijrochisi sifatida opera xonandalari sahnaga olib chiqadi. Operalar taqdiri - uning teatr repertuarlaridan keng joy olishi mana shu uchlikga juda bog'liqdir. Ular keyingi xolda operaning taqdirini belgilaydi. Ko'p xollarda kompozitor va dirijyorlarning birgalikda hamkorlikda samarali ishlashi natijasida ko'plab operalar yaratildi. Bilamizki operalar o'z ichiga deyarli barcha san'at turlarini qamrab oladi. Uning yaratilishi bilan birgalikda nafaqat musiqiy ohanglar jilosi, balkim raqs turlariga ko'ra, rassomchilik, liboslar va sahna dizayni, xaykaltaroshlik, badiiy san'at, she'riyat kabi ko'plab jabhalarda ham yangiliklar qilinishini ko'rib kelmoqdamiz. Bu bir vaqtning o'zida yosh tomoshabinni bir qator estetik tarbiyalovchi va ma'naviy olamini o'sishiga xissa qo'shishi mumkin bo'lgan omillardir. Shuni takidlash lozimki mustaqillik yillarida milliy opera san'atining rivojlanishi va ijro jarayoning yaxshilanishi uchun ko'plab ishlar amalga oshirildi. Bunda qadriyatlar tiklandi, buyuk shaxslar nomlari operalarda jonlantirildi.

Ilk operalar qatorida M.Ashrafiy 1939 yilda dramaturg K.Yashin librettosi asosida "Bo'ron" birinchi o'zbek operasini S.N.Vasilenko bilan hamkorlikda yaratilganligidan so'ng, 1941 yil ular hamkorligida "Ulug' kanal" nomli ikkinchi opera yozildi. Bu operalar o'zining o'sha davr inson xayotiy kechinmalarini, yashash tarzi va kurashuvchanlikga undovchi jasorat bilan bog'liq edi. Keyin esa Tolibjon Sodiqov 1940 yili Reyingold Glier bilan hamkorlikda "Layli va Majnun" (Xurshid librettosi asosida) operasini yaratdi. Ushbu opera yoshlarni ulug' bobokalonimiz Alisher Navoiyning "Xamsa" asari asosida bo'lib, unda lirik ko'rinishdagi mavzularga katta ahamiyat qaratiladi. Keyinchalik ular hamkorligida yana bir opera "Gulsara" (K.Yashin librettosi) 1949 yil tahrir qildilarva. Opera asosini jamiyatda ayollarning o'z o'rni va mavqeyiga ega bo'lishi g'oyasi ilgari surilgan edi. Tolibjon Sodiqov, Boris Zeydman hamkorligida yaratilayotgan "Zaynab va Omon" (Zulfiya librettosi) operasi va To'htasin Jalilov tomonidan 1949 yil Boris Brovsin bilan hamkorlikda "Tohir va Zuhra" operasini yaratdi. Opera 1977 yilda shu opera qayta tahrir qilindi. Bu operalar o'zining musiqiy til jihatidan va inson ma'naviy dunyosi, ichki kechinmalar milliy ruh bilan boyitilganligi bois hozirga qadar teatr sahnalarida ijro etilmoqda.

1958 yilda Alisher Navoiyning "Sab'ai sayyor" dostoni asosida K.Yashin va M.Muhamedovlarning librettosiga "Dilorom" operasini M.Ashrafiy mustaqil ravishda yozdi. Opera sahna ko'rinishlar bir vaqtning o'zida yetti sayyora yetti malakga qiyoslangan xolda, yetti mamlakat urf odatlari va musiqasi balet sahnalari bilan uyg'un xolda aks etadi. Bu o'z o'rnida yosh tomoshabinlarni opera xonandaligi va balet ijrochilik san'atini chambarchan xolda ko'rishga imkon yaratadi.

Keyingi yillarda ya'ni 1962 yili I.Sulton librettosi asosida "Shoir qalbi" operasi Furqat siymosiga bag'ishlangan edi. 1980-1990 yillar oralig'ida ijodkorlar ko'p xollarda tarixiy shaxslarga hayotini aks ettirishini ko'rish mumkin. Bu opera san'ati orqali yoshlarni avlodlar siymolarini obrazlar orqali jonli ko'rsatib, ko'p xollarda ular hayoti, yashash tarzini o'rnak sifatida ko'rsatilishiga e'tibor qaratilgan. Shu asosda kompozitor Mustafu Bafoev O.Uzoqov librettosi bilan 1987 yilda "Umar Hayyom", 1990 yilda Mutal Burhonov "Alisher Navoiy", Alisher Ikramovning 1996 yil Navoiy nomli DAKTda Amir Temur 660 yilligiga bir pardali ikki ko'rinishli "Buyuk Temur" (I.Jiyanov librettosi), Habibulla Raximov 1999 yil U.Azimov librettosi asosida "Alpomish va Oybarchin", Ikrom Akbarov 1998 yil va "Jaloliddin Manguberdi" (M.Shayxzoda librettosi), Sayfi Jalil 1991 yil yozilgan "Malikai ayyor" operalari yozildi. Yuqorida nomlari kelitirilgan operalar Alisher Navoiy nomidagi DAKT sahnalashtirildi va ularning ayrimlari hozirgi kunda ham ijro etilmoqda.

Hamid Raximov ijodiga nazar solar ekanmiz Samarqand opera va balet teatri uchun 1970 yilda "Zafar" musiqali dramasi asosida shu nomli (U.Ismoilov librettosi) operasini yaratdi. Ularning zamondoshi bo'lmish kompozitor Ibrohim Hamroev tomonidan 1969 yilda E.Vohidov librettosi asosida "Oyjamol" va bir oz vaqtdan so'ng J.Jabborov librettosi bilan "Cho'l chaqmog'i" operalar yaratdi.

Opera janri bilan bir qatorda opera-balet janrlarining birgalikda ishlatilish xolatlari ham keng qo'llanilib shu tarzda Nuriddin G'iyosov tomonidan o'zbek halq ertaklari asosida N.G'iyosov libretto bilan 1982 yil 3 qism 9 ko'rinishli "Uch og'a-ini botirlar" opera-balet sahnalashtirildi.

Yoshlarni xususan kichik yoshdagi bolar uchun ham opera janrida ijod qilish kompozitorlar nazaridan chetda qolmagan. Shu o'rinda aytish kerakki bolalarga yaqin bo'lgan qahramonlar orqali teatr san'ati bilan tanishgan xolda kelgusida ularni ma'nan tarbiyalab, haqiqiy tomoshabinga aylantirish mumkindir. Bolalarning sevimli kompozitori Avaz Mansurov yosh opera tinglovchilarini uchun bolalar operalar X.Qayumov librettosi asosida 1984 yil "O'zga sayyoralik robot", 1989 B.Isroil va F.Safarovlar librettosi bilan "Hayvonlar sultoni", M. Yusupov, A.Bobojonov, M.Muhamedovlarning librettosiga "Bo'z o'g'lon" operasini muqaddima va birinchi pardasini sahnalashtirdi, bolalar uchun esa "Aliqambar" (O.Matchon librettosi) va "Chevar qiz" (M.Muhamedov librettosi) bolalar operalari yozildi. Biroq bu operalar hozirda teatrlar repertuarlarida yo'q.

Opera janri yurtimizning turli teatr sahnalarini egalladi. Jumladan, Qoraqalpog'iston vakili Najimaddin Muhameddinov tomonidan shoir Ajiniyaz hayotiga bag'ishlab, dramaturg U.Yusupov librettosi asosida 1987 yili "Ajiniyaz" operasini yozadi. Qoraqalpoq musiqa madaniyati tarixida bu birinchi opera bo'lib sahnalashtirildi va Berdax nomidagi musiqali teatr jamoasi tomonidan tomoshabinlar e'tiboriga havola etildi.

Vaqt o'tishi bilan kompozitorlik maktabiga yosh vakillar kirib kela boshladi. Misol uchun kompozitor Nurilla Zokirov ijodiga nazar solar ekanmiz u M.Boyjievning pesasi asosida E.Oxunova yozgan librettosiga 1972 yil "Sohilda to'qnashuv" nomli opera-munozarasi premyerasi Alisher Navoiy teatrida 1974 yilda bo'lib o'tgan bo'lsa, u tomonidan "O'yg'onish" operasi 1983 yilni Oybekning "Boy ili hizmatchi" romani asosida (M.Rahmonov librettosi) asosida yozdi. Mustaqillik davrida 1993 yil "Avtonomiyachilar" operasi, libretto ham o'ziniki va 1994 yil "Hamlet" operasini aytish mumkin. Yuqorida nomlari keltirilgan operalar o'zbek yozuvchilari asarlarini sahnada musiqa tili orqali ifodalanishi bilan yoshlar dunyo qarishi kengayishi va ma'naviyati o'sishida xizmat qila oldi.

Bilamizki oratoriya va kantata janri dramaturgiyasi bo'yicha opera janriga yaqin bo'lib, ularni sahna xarakati yo'qligi bilangina bir-biridan ajraladi. Bu janrlarning uyg'unligini Oydin Abdullaeva E.Vohidovlarning she'rlari asosida 2001 yil rejissyor F.Safarov librettosiga Navoiy, Zulfiya, Hamid Olimjon asarlaridan foydalanib, "Vafo" nomli opera-oratoriyasini konservatoriyaning opera-studiya jamoasi ijrosida dirijor G'ani To'laganov tomonidan qo'yildi.

So'ngi yillarda opera janrining yanada rivojlandi. Zamondosh kompozitorlarimiz Rustam Abdullaev Omon Matchon librettosiga Zulfiyaxonim va Hamid Olimjon siymolari, muhabbat vafo tushunchasi asosiy mavzu bo'lgan "Sadoqat" operasi (2015 yil), Mustafo Bafoevning Al-Farg'oniy hayoti aks etgan "Sevgim samosi" (2002 yil) va "Xamsa", "Alisher Navoiy" yaratilgan operalarini keltirib o'tish mumkin.

Yuqorida keltirilgan operalar o'zining mazmun jihatidan turli mavzularni qamrab olgan bo'lsada ularda asosan xalq kechinmalari, turli bo'lib o'tayotgan davr muammolari singdirilgan va ochib berilgan edi. Operalarda o'zbek milliy ohang kuylari ko'p ovozli xolda, turli cholg'ulashtirilgan usullari yordamida qo'llanilganligi, bu orqali janrning tomoshabinga yetkazish, qabul qilishini bir muncha osonlashtirish vazifasi ham turar edi.

Zamonaviy texnika, ommaviy axbarot vositalarining takomillashishi, orqali ham opera janri bilan tinglovchilarni tanishtirish maqsadida Ikrom Akbarov Xurshid Davron librettosi asosida "Buxoroi Sharif" teleopera-doston yozildi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki opera san'ati o'zining murakkab tuzilmasiga ega ekanligi, unda inson ma'naviyatini o'stirish, estetik-badiiy tasavvurini kengaytirish, turli san'atlarni bir janrda mujassamligi bilan yoshlar tarbiyasida o'z o'rniga ekanligi turli mamlakatlar musiqa ziyolilari tomonidan takidlanib kelingan.

Yuqoridagilarni inobatga olgan xolda yurtimizda hozirgi kunda qadar yaratilgan, yaratilayotgan milliy operalar chet el operalari bilan bir qatorda repertuardan joy egallaganidan juda fahirlanamiz. Zeroki opera musiqa olamida doimo eng yuksak ma'naviyatni shakillantirish va insonni yaxshilikga, go'zallikka yetaklovchi samarali katta kuch bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ашрафий М. Музыка в моей жизни-Т.: Издательство литературы и искусство им.Г.Гуляма, 1975.
2. Jabborov A. O‘zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari-Т.: Yangi asr avlodi, 2004.
3. Пеккер Я. Узбекская опера - М.: Музыка, 1984.